

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi

MD-2.02

2017 - yil "18" 08



**IJROCHILIK MAHORATI ASOSLARI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - pedagogika
Magistratura mutahassisligi:	5A111101 – Musiqa ta'limi va san't

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 201__-yil «__» _____dagi
«__»-sonli buyrugʻining __-ilovasi bilan fan dasturi roʻyxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha
Oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 201__-yil
" __ " _____dagi " __ " -sonli bayonnomasi bilan maʼqullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab
chiqildi va turdosh oliy taʼlim muassalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

Q.B.Panjieyv - "Musiqiy taʼlim" kafedrasini mudiri, s.f.n.

D.Qodirov - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Musiqiy taʼlim" kafedrasini dotsenti

Taqrizchilar:

B.Gʻ.Azimov - OʻzDK dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

M.Bakirova - Chilonzor pedagogika kolleji "Xonandalik" fani oʻqituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
oʻquv-uslubiy kengashida koʻrib chiqilgan va tavsiya qiilingan. (201__ - yil
«__» _____dagi __ - sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

5A111101-Musiqa ta'limi va san'at magistratura mutaxassisligi uchun tuzilgan mazkur dastur – musiqa ijrochiligi mahorati asoslari, fanidan talabalarning milliy sozlar ijrochilik san'ati tarixi (an'anaviy sozandalik) ijrochiligi, an'anaviy xonandaligi fanlaridan tayanch ma'lumotlarni berish uchun Davlat ta'lim Standartlari talablari asosida san'at sohasidagi magistratura mutaxassisligining o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda keng foydalaniladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Ijrochilik mahorati asoslari fanining asosiy **maqsadi** –talabalarning ijro mahoratini mukammal egallashlari bilan birga, ma'naviy merosimiz bo'lgan xonandalik asoslari hamda ijrochilik namoyondlarining hayoti faoliyatini , shuningdek, musiqiy ijrochiligini kishilik jamiyatida tutgan o'rni nechog'li ahamiyatli ekanligini bilishlari lozim. Zero, musiqa ijrochiligida xonandalik va cholg'u ijrochiligi o'zining nozik sadolari bilan inson ruhiyatiga ta'sir etish bilan birga, ahloqiy, madaniy va ma'naviy boyliklarni ifoda etadi.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan **vazifalar** - talabalar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Talabalar mazkur fan orqali cholg'ularni kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi, asrlar davomida ijro san'atida yuzaga kelgan o'zgarishlar, mashhur san'atkorlarni ijro an'analari kabi nazariy tomonlarini bilishlari lozim. Eng avvalo o'z milliy madaniyatimiz musiqa va san'at turlari tarixini bilishi - keng qamrovli mutaxassis bo'lib yetishiga yordam beradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

Mazkur fanni o'zlashtirish natijasida talaba Davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi nazarda tutiladi, xususan:

- xonandalik ijrochiligining mahorat asoslarini, rang-barang cholg'ularini, boy ijrochilik an'anelarini;
- Sharq xalqlari cholg'u ijrochiligi faoliyatini ***bilishi kerak***;
- musiqa san'atining turli xil zamon va uslublaridan olingan yorqin misollarni tinglab tahlil etish;
- akustik, ritmik, ohang, lad, tuzilish, bezak va ijroviy tahlil qilish;
- o'quv-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalash, tashkil etish va amalga oshirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;

- Sharq xalqlari va o'zbek ko'ylari hamda vohalarga xos maqom yo'llari, bastakorlar ijodidan asarlar chalish, umumlashtirish va keng yoyish **malakalariga ega bo'lish kerak.**

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Ijrochilik mahorati asoslari fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-mavzu. Qadimda musiqa san'ati

Milliy qo'shiqchilik an'alarining shakllanishi, musiqiy cholg'ularning kelib chiqish tarixi, kishilik jamiyatida musiqiy cholg'u sozlarining yaratilishiga sabab bo'lgan omillar va inson hayotida tutgan o'rni.

2-mavzu. Arxeologik qazilmalar va yozma manbalarda aks ettirilgan musiqiy cholg'ular (ko'rinishi, turlari, o'tagan vazifalari).

Arxeologik qazimlardan topilgan turli davrlarga oid musiqiy cholg'ular o'sha davr musiqa madaniyatidan, musiqa saviyasini qay darajada bo'lganidan dalolat beradi. Qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Afrosiyobda bir qancha mashshoqlar tasvirlangan terakkota xaykalchalari topilgan. Topilmalar orasida ko'proq ud ushlab turgan mashshoqlarni tasvirlanishi, o'sha uzoq o'tmishda Sug'dda bu cholg'u keng qo'llanilganidan dalolat beradi.

3-mavzu. Musiqiy cholg'ularni xalq maishiy turmushida qo'llanilishi.

Musiqa ijrochiligi an'alarinig O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Asrlar davomida xalqning turli marosimlari va ommaviy bayramlarida, maishiy turmushda musiqa cholg'ular asosiy o'rinni egallab kelgan. O'rta Osiyoda keng tarqalgan: "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Gul bayrami" kabi mavsumiy bayramlarda, sayillarda yuzlab kasbiy va havaskor musiqachilar qatnashgan.

4-mavzu. Ijrochilik mahorati asoslari san'atini tarixiy ahamiyati.

Qadimiy shaharlarda savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni taraqqiy etishi kabi omillar musiqa san'atini turli funktsional yo'nalishlarga bo'linishiga olib keladi.

2-Modul. Cholg'ularda ijrachilik ahamiyati.

5-mavzu. Kasbiy sozandalik qatlamining vujudga kelishi.

Ma'lumki, o'z davrida saroyda yaratilgan muhit yuqori saviyali yetuk kasbiy ijrochilarni yetishib chiqishiga qo'l kelgan.

6-mavzu. Musiqiy sozlar o'rta asr miniatyura va risolalarida.

Adabiy asarlarda mohirona ta'riflangan o'z davrining musiqiy sozlari ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lishimizga yordam beradi.

7-mavzu. Musiqiy cholg'ularni tasniflash tizimi.

Asrlar davomida musiqiy cholg'ularni tasniflash tizimlari mavjud bo'lib, bu tizimlar asosan tovush chiqarish uslubiga asoslangan. Eng qadimiy tasniflash tizimi Bxarata (mil.avv. IIa.- mil. IIa.) tomonidan amalga oshirilgan.

8-mavzu. Milliy cholg'ularni takomillashtirilishi.

Har bir tarixiy davrning rivojlanishi qo'yilgan talablar asnosida kechgan. Hayot rivojlanishda bo'lgandan so'ng, inson didi, saviyasi ham o'zgarib boradi. Musiqa ijrochiligida ham yangi musiqiy jamoalarni vujudga kelishi "milliy sozlarimizni qayta ko'rib chiqish" asosiy vazifalardan biriga aylandi.

9-mavzu. Yangi davr ijrochiligining ikki yo'nalishi.

Milliy sozlarni takomillashtirish jarayonidan so'ng ijro san'atida ikki yo'nalish vujudga keladi: an'anaviy va zamonaviy ijrochilik talablariga moslashtirilgan ijro. Ikki yo'nalishda ham o'ziga xos ijro uslublari mavjud bo'lib, ular milliy sozlarimizni keng ijro imkoniyatlarga ega ekanligini isbotlab berdi.

IV. Fanning xususiy metodikasi

10-mavzu. Ijrochilik mahorati asoslari malakalarini shakllantirish

Jamoa bo'lib yashash qulayligini anglagandan so'ng, bir-biridan ogoh bo'lish uchun, aloqa vositalariga ehtiyoj sezadi. Bog'lanish vositasi uchun avvaliga o'z ovozi va tabiat ashyolaridan, turli chizilgan belgilardan, keyinchalik esa musiqa cholg'ularidan foydalanadi. Qadimiy shahar markazlarini paydo bo'lishi, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalarni taraqqiy etishi, tabaqaviy jamiyatning tuzilishi kabi omillar musiqa san'atini turli funktsional yo'nalishlarga bo'linishiga olib keladi. Pirovardida,

turli musiqiy cholg'ular, ijro an'analar yuzaga keladi (saroy ijro an'analari, harbiy ijro san'ati, diniy marosimlarda ijro an'analari va h.k.).

11-mavzu. Ijrochilik mahorati asoslari xususiyatlari

Ijrochilik mahorati asoslari fanida Fanning tegishli bo'limi yoki ma'ruza bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan ishlash, maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash. Musiqiy materialni o'rganish va tahlil, o'rganilayotgan bo'lim va mavzular bo'yicha o'kuv ilmiy – tadqiqot ishlarini olib borish, ma'ruzalarning tegishli bo'limi bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishtirish va tushinish mutodikasini talabalar ongiga singdirish.

V. Seminar mashg'ulotlar mavzulari:

Ushbu fan bo'yicha ma'lum bir mavzularni o'tib bo'lingandan so'ng, seminar mashg'ulotlari olib borilishi nazarda tutiladi. Bu – nazariy o'rganilgan bilimlarni, amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Amaliy mashg'ulotlarda har bir mavzu yuzasidan cholg'uni chalib ko'rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta'sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

Nazariy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni seminar mashg'ulotlarida turli shakllar bilan sinovlardan o'tkaziladi. Seminar mashg'ulotlari fanni kasbiy tayyorgarlik talablari darajasida o'zlashtirishga yo'naltirilgan barcha uslubiy yondoshuvlar, bilim va ko'nikmalarni mantiqan umumlashtirishga xizmat qiladi.

1-mavzu. Qadimda musiqa san'ati

Hayotning ilk bosqichlarida, hali tabiat hodisalarini anglab yetmagan davrlarda inson ko'p jihatdan ojiz bo'lgan. U dastlab yashash uchun zarur bo'lgan vositalarni topish yo'lida ko'p musibat va havf-xatarlarni boshidan kechiradi.

2-mavzu. Arxeologik qazilmalar va yozma manbalarda aks ettirilgan musiqiy cholg'ular (ko'rinishi, turlari, o'tagan vazifalari).

Musiqa cholg'ulari aks ettirilgan yodgorliklar Xorazmni "Qo'y qirilgan-qal'a", "Tuproq-qal'a"da, Termezni Ayritom xududida, "Dalvarzin tepa"ligida va h.k. topilgan.

3-mavzu. Musiqiy cholg'ularni xalq maishiy turmushida qo'llanilishi.

Musiqqa cholg'ulari nafaqat bayramlarda, qayg'uli kunlarda ham qo'llanilgan. Ibodatxonalaridagi ibodat onlari ko'pincha musiqqa jo'rligida amalga oshirilgan. Turli marosimlardan tashqari musiqiy cholg'ular tabiblar tomonidan bemorlarga shifo bag'ishlovchi malham sifatida tavsiya etilgan.

4-mavzu. Ijrochilik mahorati asoslari san'atini tarixiy ahamiyati.

Turli musiqiy cholg'ular, ijro an'analar yuzaga keladi (diniy marosimlarda ijro an'analari, saroy ijro an'analari, harbiy ijro san'ati va h.k.).

5-mavzu. Kasbiy sozandalik qatlamini vujudga kelishi.

Yangi ijro uslublar va janrlarni yaratilishi, ijro mahoratini boyib borishi, o'z o'zidan xalq ijodiyotidan uzilishga va kasbiy darajadagi qatlamni vujudga kelishiga zamin yaratgan.

6-mavzu. Musiqiy sozlar o'rta asr miniatyura va risolalarida.

Bu asarlarga chizilgan rasmlarda, miniatyuralar va saroy devoriy rasmlarida ularni aks ettirilishi, ko'rgazmali tasavvurimizni yanada boyitadi. Musiqiy cholg'ularni nazariy qismi SHarq olimlar risolalarida yoritilgan.

7-mavzu. Musiqiy cholg'ularni tasniflash tizimi.

G'arb davlatlarida musiqqa cholg'ularini tavsiflash tizimi 1880 y. Belgiya cholg'ushunosi Mayyon joriy etib, keyinchalik XX a. boshlarida Xrnboitel va Zaks bu tasnifni rivojlantirib, kengaytirganlar.

8-mavzu. Milliy cholg'ularni takomillashtirilishi.

Musiqiy sozlarni har qanday ko'rinishlari va ularni mukammallashtirish yo'lidagi urinishlar, o'z davri madaniyat darajasini, inson tafakkurini ma'lum in'ikosidir.

VI. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni hamda tavsiya etiladigan mustaqil ta'lim mavzulari

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi:

Forobiy, ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Urmaviy, Sheroziy va b. asarlarida musiqa san'ati, fani va pedagogikasi.

O'rta asrlarning mashhur musiqachilari va ularning musiqa ta'limi va pedagogikasi rivojiga qo'shgan hissalar. Kavkabi, Darvesh Ali va b.

Musiqiy san'at, o'zbek professional musiqasi og'zakai an'alarining shakllanishi, xalq musiqiy ijodi, saroy musiqasi.

Ustoz – shogird maktadlarida musiqachini o'qitish sistemasi.

Buyuk o'zbek musiqachilari: domla Halim Ibodov, A.Abdurasulov, mulla TO'ychi Toshmuxeimedov, Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy va b. ning musiqa san'ati va musiqa ta'limi rivojiga hissasi.

XX asrning 20 – yillaridan 80- yillarigacha davrda O'zbekistonda musiqa pedagogikasi va musiqiy ta'limning rivojlanishi

Umuminsoniy, milliy ma'naviy va madaniy qadriyatlar O'zbekistonda zamonaviy musiqa pedagogikasining yetakchi tamoyillari sifatida.

YuNESKO, xalqaro tashkilotlarning musiqiy tarbiya va ta'lim sohasiga oid faoliyati.

Mustaqil o'rganish uchun tavsiya qilinadigan mavzular:

1. Eramizdan oldingi IV asrda Markaziy Osiyoda musiqa san'atining rivojlanishi.
2. IX – XII asrlarda musiqa pedagogikasining rivojlanishi.
3. Temuriylar davri madaniyatida musiqa va pedagogika.
4. Jomiy va Navoiy ijodida musiqa.

5. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida musiqa ta'limi rivojiga hissa qo'shgan olimlar.
6. XI – XV asrlarda musiqa madaniyati va ma'naviyat rivojiga hissa qo'shgan olimlar asarlari.
7. Buyuk mutafakkir Forobiyning musiqa pedagogikasining shakllanishidagi o'rni.
8. XVI asrdan XIX asrning 1 – yarmigacha o'zbek halqining madaniyati rivojlanishi.
9. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda musiqa pedagogikasi.
10. Navoiy – musiqashunos. Uning milliy musiqa san'ati rivojlanishiga qarashlari.
11. XX asrning 20 – 80- yillarida O'zbekistonda musiqiy ta'lim va tarbiya.
12. Yunus Rajabiyning hayoti va faoliyati, musiqa ta'limi rivojlanishidagi hissasi.

VII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Larri Star & Christopher Waterman. American popular music. Oxford Universite Press. Inc. 2007.
2. Mishael Pilhofer and Holly Day “Music Theory for dummies” Indiana USA 2007. Wiley Publishing Inc.
3. James Tackett. “Fundamentals of church music Theory” Austin Christian Akappella Musik. Abilene Christian University. 2009.
4. Т.Вызго. Музыкальные инструменты Средней Азии. М-1980.
5. О.Матёкубов. Мақомот. Т., 2004.
6. Хакимов Н.Г. Музыкальная культура таджиков (древнейшая, древняя, раннесредневековая история). Книга ИИ. Худжант, 2004.
7. Вызго Т.С. Кароматов Ф.М и др. История музыки в изображениях. Т. ИХ. «Средняя Азия». В-92 №831.
8. Х.Хамидов Марказий Осиё халқларининг илк ўрта асрлар санъати тарихидан. Т 1995.
9. И.А.Ражабов. К истокам профессиональной музыкальной жизни народов Среднего Востока.// Традиции музыкальных культур народов Ближнего, Среднего Востока и современность. М-1987.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Ш.М.Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017

йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январь, №11

2. Ш.М.Мирзиёев Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз биланни бирга қурамыз. тошкент “Ўзбекистон” – 2017й.

3. Ш.М.Мирзиёев Эркин ва фаравон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамыз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.

4. Ш.Мирзиёев Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаравонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2016й.

5. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 1-илова: “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”. Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 8 февраль сони ва Интернет ресурс: www.lex.uz.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 46

7. Авесто. “Шарқ” Нашриёт-матбаа Акциядорлик компаниясиси бош таъририяти. Т., 2001.

8. З.Орипов. Ибн Зайланинг “Китабу-л-кафи фи-л-мусиыа” рисоласидаги мусиыашунослик атамалари. Т-2008.

9. Б.А.Струве. Процесс формирования виол и скрипок. М., 1959.

10. А.Джумаев. О взаимосвязях музыкальных культур Средней Азии и Индии в древности. // Индия и Центральная Азия. Т-2000.

11. Ремпель Л.И. Искусство Среднего Востока. М., Советский художник., 1978.

12. А.Кабиров Жаҳон тарихи. Т-2001.

13. А.Маврулов, И.Деҳқонов. Маданият тарихи. Т., 2007.

14. Ўзбекистон тарихи. 1 қ., Т., 1997.

Интернет сайтлари

1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz

3. www.Ziyonet.uz

4. www.edu.uz

5. tdpu-intranet.Ped